



## Jizzax viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 641 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 50 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 830,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 118,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 112,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,5%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 161,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 557,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,1 %) tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)



## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 710 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 427,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 25,3 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 405,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 35,4 % ga o'sdi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Zafarod (14,0 m.), Forish (5,2 m.), Yangiobod (3,4 m.), Do'stlik (3,3 m.) va Baxmal (2,4 m.) viloyatlarida kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 011,9 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> D.Mayliboyeva Tel: +998722215126 (2540)	<b>Ijrochi:</b> J. Sangirov Tel: +998722215126 (2540) e-pochta: <a href="mailto:trade@stat.uz">trade@stat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 130100, Jizzax sh., To'qimachilar ko'chasi, 7-uy
---	--	--	--